

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha  
mutaxassislarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti

Farg‘ona filiali

**“Bolalar psixologiyasi”  
moduli**

**4-Mavzu: MAKTABGACHA YOSHDAGI  
BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI  
VA UALAR FAOLIYATINING PSIXOLOGIK  
TAVSIFI  
(Amaliy mashg‘ulot)**

**Katta o‘qituvchi: Kurbonova Shaxnoza Nimadovna**



## **REJA:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sportga bo‘lgan motivlarini aniqlash va yo‘naltirish.
3. Bolalar faoliyatining psixologik tavsifi.

**Maktabgacha davr** – bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir.

Mazkur davr ichida bolaning insoniy fazilatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi. Bola har tomonlama sog'lom bo'lib shakllanishida o'z navbatida jismoniy tarbiya va sportning tutgan o'rni va ahamiyati juda katta. O'yin faoliyati bilan shug'ullanish bolaning qiziqish va ehtiyojlariga mos tarzda takomillishib boradi.



**Harakatli o‘yinlar har bir bolada  
quyidagi asosiy jismoniy va psixologik  
sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib  
qo‘yishi lozim:**

**Yuqori kayfiyat**

**chaqqonlik**

**kuchlilik**

**egiluvchanlik**

**xushchaqchaqlik**

**mustaqil harakat**

**tezkorlik**

**zukkolik**

**chidamlilik**



Inson hayotidagi faoliyat turlari uchga bo‘linadi.

Ya’ni bu faoliyat insonning jismoniy va aqliy faoliyati imkoniyatlarini hisobga olgan holda uch turga ajratilgan

### I. O‘YIN



### II. O‘QISH



### III. MEHNAT



O‘yin faoliyati orqali bolalarda harakatning yangi ko‘rinishi, ya’ni uning fikriy, aqliy jihatini namoyon bo‘ladi va shuning uchun o‘yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko‘rinishi vujudga keladi.



**Rolli o‘yin** - bog‘cha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi shaxslarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarini umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.



**Rolli o‘yin** faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri – bolada o‘z xatti-harakatlarini chattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o‘xshatish tuyg‘usining mavjudligidir. Xuddi shu sababli chattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo‘ladi va chattalarning xulqatvori, yurish-turishining ham obyekti, ham subyekti hisoblanadi.



Bolalarning *mehnat* faoliyatlarini o‘zida qamragan mashg‘ulotlar asosan bog‘cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo‘lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.



Bog‘cha yoshidagi bolalar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish dastavval bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o‘zlarining o‘yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar

Bog‘chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan: tabiat burchagidagi jonivor yoki o‘simliklarni parvarish qilish, bog‘cha hovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish



O‘rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o‘yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya’ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy-ro‘zg‘or ishlariga zo‘r ishtiyoq bilan yondashadilar, kichkintoylar uchun qog‘oz, karton va plastilindan turli o‘yinchoqlar yasaydilar.

Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama, ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham ahloqiy tomonidan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

## "Kim chaqqon" metodikasi

Ushbu metodikani o'tkazishdan maqsad: ko'rish, harakat sezgilari, rangni va fazoviy munosabatlarni idrok qilish tushunchalari rivojlanadi.

Ushbu metodika uchun kerakli jixozlar: rangli qog'oz, qaychi va chizg'ich;

Rangli qog'ozlardan har hil rangda geometrik shakllarni qirqib olamiz.  
Uchburchak , doira , kvadrat

Bu metodika 5-7 yoshli bolalarga mo'ljallangan;

O'yinning borishi: stol ustiga rangli qog'ozlardan qirqilgan shakllarni qo'yib chiqasiz va unga ko'rsatma berasiz misol qilib oladigan bo'lsak: "Menga qizil rangli to'rtburchakni top" deb. Shu tarzda o'yin davom etadi va qaysi rangdagi shakllarni aytishni xoxlasangiz aytib chiqasiz. O'yinning davomiyligi 15 daqiqa



# Ushbu o'yinni ikki xil shaklda olib borsangiz bo'ladi

Qanday qilib deysizmi?


Masalan xoxishingizga ko'ra 6,7 ta shaklni stol ustiga qo'yasiz va farzandingizga bularni eslab qolishlarini aytasiz.

Bundan so'ng ko'zlarini yumib turishini aytib, bir yoki ikkita (bu o'z xoxishingizga ko'ra) shaklni yashirib qo'yasiz va unga ko'zlarini ochishini aytasiz.

Farzandingizdan qaysi rangdagi shakllar yo'qligini so'raysiz. Shu tariqa o'yinni o'z istagingizga binoan davom ettirasiz.

O'yining bu ko'rinishi diqqatni jamlashga va hotirani yaxshilashga yordam beradi.





- ❖ Ushbu metodikaning nomi "Uchburchaklar" metodikasi.
- ❖ Metodika maqsadi: ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishga yo'naltirilgan.
- ❖ Metodika uchun kerakli materiallar: qog'oz va rangli qalamlar.

❖ Ko'rsatma: Bolaga oq qog'oz va rangli qalamlar beriladi va bir qatorga 10 ta uchburchak chizish topshiriladi. Bola chizib bo'lganidan so'ng e'tiborliroq bo'lish taklif etiladi, chunki ko'rsatma faqat bir bora o'qib beriladi:

"E'tiborli bo'l, qizil qalam bilan 3,7 va 9 chi uchburchaklarni bo'yab chiq". Agar bola birinchi topshiriqni bajargan bo'lsa boshqa topshiriqlar berish lozim, sekin asta mukamallashtirish kerak.

Qolgan juft raqamdagи uchburchaklarni yashil rangga bo'yashni aytish mumkin. Bu sizning fantaziyangizga bog'liq.

**E`tiboringiz uchun  
rahmat!**

